



BOBURIYLAR SULOLASI ASOSCHISI ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

Nishonov Muhammad Bahodir o'g'li

Alfraganus universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrası 1-bosqich

magistratanti,muhammadnishonov1998@gmail.com

Pulatov Sherdor Nematjonovichi

Ilmiy rahbar: Alfraganus universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedra mudiri, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Boburiylar sulolasiga Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan asos solinishi va Panipat jangi.

Annotatsiya: Основание династии Бабур Захируддином Мухаммадом Бабуром и битва при Панипате.

Annotatsiya: The founding of the Babur dynasty by Zahiruddin Muhammad Babur and the Battle of Panipat.

Kalit so'zlar: Boburiylar davlatining vujudga kelishi jarayonini, Panipat jangi, Boburning harbiy strategiyasini.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda Farg'ona hokimi bo'lgan Umarshayx Mirzoning xonadonida dunyoga keldi. Harbiy ta'lim, fiqh, arab, fors tillarini o'rgandi. Jasurligi sababli Bobur (sher) laqabini oldi. Otasi Umarshayx Mirzo Yassaviyya tariqatining yetuk shayxlaridan Xo'ja Ahror Valiyning muridlaridan edi. Bobur ham yoshligidan tariqatda o'sdi.

Otasining vafotidan keyin yosh Bobur taxtga chiqdi, lekin bu vaqtda Movarounnahrda vaziyat juda og'ir edi. Barcha Temuriy shaxzodalar hokimiyatga kelishi bilan Amir Temur poytaxti bo'lgan Samarqandni egallashga haris bo'lar edilar. Bobur ham shunday qildi.

Bobur Samarqandni egalladi ammo, bu vaqtda Shayboniylar katta kuchga aylanib bevosita Samarqandga tahdid qila boshlagan edi. Bundan tashqari ichki nizolar, amirlarning beboshliklari, shahzodalar o'rtasida taxt kurashlari natijasida Movarounnahr mutlaqo zaif holatga kelib qolgan edi.

Bobur Movarounnahrni tark etishga majbur bo'ldi. Samarqandni ikkinchi marta boy berganidan so'ng, Zahiriddin Muhammad Bobur 1519-yilda Chenob daryosi qirg'oqlariga yetib keladi. Shu davrdan boshlab u o'z diqqat-e'tiborini Hindistonni zabt etish masalasiga qaratadi.

Uning dastlabki maqsadi (1524-yilgacha) Hindistonni to'liq egallash emas, balki Panjob viloyatini o'z tasarrufiga olish, ya'ni bobokaloni Amir Temur tomonidan asos solingan hududlarni qayta tiklashdan iborat edi. O'sha davrda Shimoliy Hindistonda Lo'diylar sulolasi hukmronlik qilgan bo'lib, sulton Ibrohim Lodi mamlakatni boshqarardi.

Ammo davlat ichki nizo, isyon va markaziy hokimiyatning zaiflashuvi oqibatida parchalanish yoqasida edi. Bobur siyosiy vaziyatni o'rganib, o'zini Hindiston taxtining qonuniy vorisi deb e'lon qildi va diplomatik yo'l bilan Ibrohim Lodiga elchi yubordi. Biroq



elchi Lahorda hibsga olinib, keyinchalik qo'yib yuborilgan. 1524-yilda Bobur Panjob tomon yurish boshladi va Lahorni egalladi. U yerdagi ichki nizo va Lo'diylar orasidagi raqobatdan ustalik bilan foydalandi. Bobur Dipalpurni ham egallab, Lo'diylarning qarshi kuchlarini tor-mor keltirdi. U Alamxon Lodiyni hokim qilib tayinladi, biroq u ham tez orada taxtdan ag'darildi. Shundan so'ng Bobur Hindistonda mustahkamlanish uchun harbiy tayyorgarlikni kuchaytirdi. Bobur Hindistonga qarshi yurishda o'zining strategik tafakkurini namoyon etdi. Ibrohim Lodi 100 mingdan ortiq qo'shinga ega bo'lganiga qaramay, Boburning harbiy intizomi, taktik mahorati va qurolli zamonaviylashgan to'pchilari sabab g'alaba unga nasib etdi.

Bobur jang oldidan "Usmonli qurilmasi" deb atalgan mudofaa usulini qo'lladi: markazda arqon bilan bog'langan 700 ta arava joylashtirildi; har ikki arava oralig'ida to'pchilar joyi tayyorlandi; qanotlarda xandaqlar qazilib, daraxt shoxlari bilan mustahkamlangan mudofaa chizig'i yaratildi.

Ibrohim Lodining katta qo'shini tor hududda to'planib, erkin harakatlana olmadi. Bobur o'zining yengil otliq qo'shinlari bilan tezkor hujumlar uyushtirib, dushmani aylanib o'tdi va Lodi qo'shinini yanchdi. Jang natijasida Ibrohim Lodi halok bo'ldi, 20 mingdan ortiq askar o'ldirildi.

Bu g'alaba natijasida Boburiylar imperiyasining poydevori qo'yildi. Bobur Hindistonning markaziy va shimoliy qismini o'z nazoratiga oldi va Agrani poytaxt sifatida belgiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
2. Karimov, Sh. Bobur va Boburiylar merosi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2010.